

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INKLYUZIV TA‘LIMNI TO‘G‘RI TASHKIL  
ETISH**

**Ulashova Navro`za Xudoynazar qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Ta`lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang‘ich ta`lim) yo`nalishi 1-kurs magistri

**Tursunova Saida Isakovna**

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta`lim matematika  
kafedrasi Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

[saidatursunova@gmail.com](mailto:saidatursunova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda inklyuziv ta'limni to'g'ri tashkil etish yuzasidan foydali tavsiyalar berilgan. Darhaqiqat, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi ko`p jihatdan ertamiz egalari bo`lmish yosh avlod qo`lidadir. Shu jihatdan ularni tarbiyasi, bilimli, yuksak salohiyatli, ilm-ma`rifatli, komil inson va har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda barchamiz birdek mas`ulmiz. Boshlang‘ich sinflarda imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim jarayoniga qamrab olishda o`qituvchidan yuksak mahorat, zehn va donolik bilan ish tutish talab etiladi.

**Kalit so`zlar:** ta'lim, inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar.

*"Har kim ta`lim olish huquqiga ega. Ta`lim tashkilotlarida alohida ta`lim ehtiyojlariga ega bo`lgan bolalar uchun inklyuziv ta`lim va tarbiya ta`minlanadi".*

**ПРАВИЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В  
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Улашова Навроза Худойназар кизи** Термезский государственный

педагогический институт Теория и методика образования

(Начальное образование) 1-й курс магистратуры

Термезский государственный педагогический институт Кафедра математики

в начальном образовании Доктор философии (PhD) по педагогическим

наукам, и.о. доцента **Турсунова Саида Исаковна**

[saidatursunova@gmail.com](mailto:saidatursunova@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье представлены полезные рекомендации по надлежащей организации инклюзивного образования в начальных классах.

Действительно, процветание нашей страны и благополучие нашего народа во многом находятся в руках молодого поколения, которое является владельцем нашего будущего. В этом отношении мы все в равной степени ответственны за их воспитание, чтобы они стали воспитанными, образованными, высококвалифицированными, знающими, всесторонне развитыми и полноценными личностями. В начальных классах включение детей с ограниченными возможностями в образовательный процесс требует от учителя высокого мастерства, интеллекта и мудрости.

**Ключевые слова:** образование, инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями. «Каждый имеет право на образование. Инклюзивное образование и воспитание детей с особыми образовательными потребностями должны обеспечиваться в образовательных учреждениях».

## CORRECT ORGANIZATION OF INCLUSIVE EDUCATION IN PRIMARY GRADES

**Ulashova Navroza Khudoynazar qizi** Termez State Pedagogical Institute Educational Theory and Methodology (Primary Education) 1st year Master's degree

Termez State Pedagogical Institute Department of Mathematics in Primary Education Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Acting Associate Professor **Tursunova Saida Isakovna** [saidatursunova@gmail.com](mailto:saidatursunova@gmail.com)

**Abstract:** This article provides useful recommendations on the proper organization of inclusive education in primary grades. Indeed, the prosperity of our country and the well-being of our people are largely in the hands of the young generation, who are the owners of our future. In this regard, we are all equally responsible for raising them to be well-mannered, educated, highly capable, knowledgeable, well-rounded, and fully developed individuals. In primary grades, including children with disabilities in the educational process requires high skill, intelligence, and wisdom from the teacher.

**Keywords:** education, inclusive education, children with disabilities.

"Everyone has the right to education. Inclusive education and upbringing for children with special educational needs shall be provided in educational institutions."

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-moddasidan*

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim tizimiga alohida ahamiyat berilgan. Birinchi Prezidentimiz tomonidan boshlangan ta'lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda Sh. M. Mirziyoyev tomonidan izchil davom ettirilmoqda. Jahon sivilizasiyasi shuni korsatadiki, ta'lim tizimini yuqori darajaga ko'tarmasdan turib boshqa sohalarda yutuqlarga erishib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi hamda ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, qonunning 9-moddasida esa "Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi." deb, ko'rsatib o'tilgan. Umumta'lim maktablarda joriy etilgan inklyuziv ta'limning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarning oddiy tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o'qishi, teng huquq va imkoniyatlar tengligini berish, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish, o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun zaruriy pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Umumta'lim maktablarga oddiy bolalarning barchasi borsa, alohida e'tiborga muhtoj bolalar ham jalb etilishi kerak. Inklyuziv ta'limning oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko'nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishiga, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi.

Umumta'lim maktablarda inklyuziv ta'lim - alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar yoki boshqa sabablar tufayli tarbiyasi og'ir, yetim bolalar uchun moslashuvchan, individuallashtirilgan va barcha bolalarga teng xuquq va imkoniyatlar tengligini beradigan ta'lim tizimidir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim - millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, jismoniy yoki rivojlanishda kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har

qanday imkoniyatni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta'lim hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim olishidir.

Inklyuziv ta'lim - inglizcha so'zdan olingan bo'lib, inclusive, inclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirilgan, o'ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma'nolarini, lotinchada esa includ - qamrab olaman, jalb qilmoq, ya'ni alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan va oddiy bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishdir. Inklyuziv ta'lim - davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan, voyaga yetayotgan o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga jalb qilishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. To'g'ri tashkil etilgan inklyuziv ta'lim alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o'qishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirishda muhim o'rin tutadi. Bunda sinf rahbarining o'rni beqiyosdir. Ya'ni sinfida imkoniyati cheklangan inklyuziv o'quvchisi bo'lgan o'qituvchining o'zi sinfdagi boshqa o'quvchilarga o'rnak va namuna bo'lishi kerak. O'qituvchi bunday o'quvchilarni boshqa o'quvchilardan ajratib qo'ymasligi, ularda bir-biriga nisbatan chin do'stona mehr-muhabbat uyg'otishi kerak. Ular bilan ko'proq ishlashi, o'z mehrini ayamasi lozim. Chunki bunday o'quvchilar boshqa o'quvchilarga nisbatan ta'sirchanroq bo'lishadi. Inklyuziv ta'limning diqqat markazida imkoniyati cheklangan bola turadi. Demak, barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga oladigan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarga sog'lom tengdoshlari tomonidan yordam ko'rsatish orqali ikki tomonlama manfaatga erishish mumkin:

- 1) imkoniyati cheklangan bolaga sog'lom tengdoshlari orqali ko'rsatilgan yordam uning hayotga ishonch bilan qarashiga yordam beradi;
- 2) sog'lom bola qalbida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan g'amxo'rlik xissi uyg'onadi.

Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy xayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Maxsus yordamga muxtoj bolalarning asosiy muammolarini ular o'zlari yashab turan muxitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi.

Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z bo'yniga olmas ekan, cheklab kuyilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin. Maxsus

ehtiyojli bolalarning ta'lim-tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish, ya'ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan ximoyalanadilar, ijtimoiy xayotda teng xuquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori,
- 2.. Shomaxmudova R. Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari. O'quvmetodik qo'llanma. Toshkent. 2007. XT "Razzoqov O.J." bosmaxonasi – B.11
- 3."Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"- XTV 234-sonli buyrug'i-2005 yil 19 sentyabr.
- 4.F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Inklyuziv ta'lim:nazariya va amaliyot "Yangi chirchiq book" nashriyoti.Chirchiq 2022.
- 5.Турсунова, С. И. (2022). Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год. ТГПИ. 2022 год.
6. Абзаиров, Т. Ю., & Каршиев, А. М. (2025). Корректирование артикуляционных органов через гласные и согласные при обучении русскому языку студентов факультетов физической культуры высших учебных заведений Узбекистана. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 2(6), 147-158.
7. Tursunova, S. I. (2025). THE IMPORTANCE OF EDUCATING PRIMARY STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Analysis of world scientific views*, 3(6), 91-97.

8. Tursunova, S. I., & Raxmatullayeva, F. A. (2025). MATN TURLARI, ULARNING O 'ZIGA XOS JHATLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(3), 602-607.
9. Иванова, С. В. УПРАВЛЕНИЕ РАЗВИТИЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА В УСЛОВИЯХ РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПА ЕДИНСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА.
10. Tursunova, SI (2025 yil, aprel). ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. FANLARARA FANI HALQARO KONFERENTSIYADA (2-jild, 4-son, 60-64-betlar).
11. Tursunova, SI (2025). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TA'LIMLASHNING AHAMIYATI. Jahon ilmiy qarashlari tahlili , 3 (6), 91-97.